

## Mahalla yoshlari bilan ishlash

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus hamda 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekistonda har bir mahallaga "Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida, institut va Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "Mirzakalon Ismoiliy" mahallasi raisi Xalimova Mashhura Maxamatovna, mahalla yoshlari va faollari bilan hamkorlikda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida institutning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor Sultanov Toxirjon Zokirovich, "Qishloq va suv xo'jaligi energiya" ta'minoti fakulteti dekani texnika fanlari doktori, professor Isakov Abdusaid Jalilovich, institut yoshlar ittifoqi yetakchisi Rasulov Davron, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi Akbarov Dilmurod, "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent Berdishev Abduraxim Sulaymanovich va kafedra professor-o'qituvchilari hamkorligida suhbat bo'lib o'tdi.



Suhbatda professor Sultanov Toxirjon Zokirovich bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turganligi va Prezidentimiz tomonidan yoshlarimizga turli hil imkoniyatlar berilayotganliklari to'g'risida aytib o'tdi. Shu bilan birgalikda institut tomonidan mahalladagi barcha yoshlarga turli xildagi to'garaklar jumladan, ingliz tili, she'riyat va elektromontyorlik kabi kasb- hunarga barcha yoshlarni taklif qilishdi.



Mahalla yoshlari bilan suhbat qizg'in bo'lib o'tdi. Abdusaid Isakov, Abduraxim Berdishev institut tomonidan tashkil etilgan turli xil to'garaklar va sport tadbirlar rejalari bilan mahalla yoshlarini tanishtirib o'tishdi. Bundan tashqari institut yoshlar ittifoqi yetakchisi Rasulov Davron, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi Akbarov Dilmurod va Mirzakalon Ismoiliyning nabirasi Ipak yuli Xalqaro turizm universiteti 1-bosqich magistranti Nodirova Kamolalar o'zlarining erishgan yutuqlari va yoshlarga tavsiyalarini berib o'tishdi.

**Et va EJF kafedrasini mudiri dotsenti O'. Xaliquazarov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**